

SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI BILAN O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA HAMKORLIK ALOQALARINING O'RNI

Madraximova Gulasal

Ilmiy rahbari TDIU, dotsent

Abduraimova Tursunaliyeva Saboxon

TDIU Iqtisodiyot va tarmoqlar sohasi talabasi

MEKP-10 magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shanxay Hamkorlik Tashkiloti bilan O'zbekiston tashqi siyosatida hamkorlik aloqalarining o'rni haqida nazariy asos keltirilgan. Mamlakatimizdagi ShHT doirasida yangi hamkorlik platformalarini ishga tushirish bo'yicha qator tashabbuslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, O'zbekiston, tashqi siyosat, iqtisod, savdo-iqtisodiy, erkin iqtisodiy zona.

Аннотация: В статье дается теоретическое обоснование роли сотрудничества с Шанхайской организацией сотрудничества во внешней политике Узбекистана. Намечен ряд инициатив по запуску в нашей стране новых площадок сотрудничества в рамках ШОС.

Ключевые слова: Шанхайская организация сотрудничества, Узбекистан, внешняя политика, экономика, торговля, свободная экономическая зона.

Abstract: This article provides a theoretical basis for the role of cooperation with the Shanghai Cooperation Organization in Uzbekistan's foreign policy. A number of initiatives have been outlined to launch new cooperation platforms within the SCO in our country.

Keywords: Shanghai Cooperation Organization, Uzbekistan, foreign policy, economy, trade, free economic zone.

KIRISH (INTRODUCTION)

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) Yevropa, Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Janubi-Sharqiy Osiyodagi davlatlarni o'z ichiga olgan mintaqaviy xalqaro tashkilotdir. ShHTga Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston a'zo davlatlar, Mo'g'uliston, Eron, Pokiston va Hindiston esa kuzatuvchi davlatlar sifatida faoliyat yuritadi. ShHT siyosiy, harbiy, iqtisodiy, energetika va madaniy sohalardagi hamkorlikka g'amxo'rlik qiladi. SHHTga a'zo mamlakatlar aholisi jami 3,33 milliard (2023-yil) yoki dunyo aholisining 42,49 %ini tashkil qiladi. To'rt nafar kuzatuvchini hisobga olsak, ShHT hatto dunyo aholisining deyarli yarmini ham qamrab oladi. Bundan tashqari, a'zo davlatlar Rossiya va Xitoydan tashqari, kuzatuvchilar Hindiston va Pokiston to'rtta yadroviy davlatni birlashtiradi, kuzatuvchi Eron esa bu maqomga erishish yo'lida bo'lishi mumkin. ShHTga a'zo



davlatlar egallagan umumiy maydon Yevroosiyo hududining 3/5 qismini tashkil qiladi. Mamlakatimizda bugungi kunda erkin iqtisodiy zonalar rivojlantirish borasida juda ko‘plab iqtisodiy islohotlar amalga oshirilyapti.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

(LITERATURE REVIEW)

A.Lukin o‘zining “ShHT: muammolar va istiqbollar” asarida ShHTni rivojlantirish istiqbollari va muammolarini belgilab berdi, buning natijasida tashkilotning kamchiliklari borligini yaqqol anglash mumkin, agar ularga tegishli e’tibor berilmasa. , ular mintaqaviy muammolarga a’zo mamlakatlar hukumatlari oldida chiqishadi. E.A. Muxitdinova “ShHT va Yevropa Ittifoqi: umumiylar xavfsizlik sa’y-harakatlari” asarida Markaziy Osiyoda qaysi xavfsizlik masalalari eng ommabop ekanligini ko‘rsatib berdi va ShHT va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni tahlil qilib, xavfsizlik sohasida hamkorlik zarurligini belgilab berdi. E.F. Troitskiy "AQShning Markaziy Osiyodagi siyosati" asarida Amerikaning mintaqadagi manfaatlari va maqsadlarini, a’zo davlatlar va butun tashkilotga munosabatini belgilab berdi. Xorijiy matbuot, masalan, “Kazakstanskaya pravda” a’zo davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar va ularning hamkorlik istiqbollarini ko‘rsatib beradi.

Tadqiqotning uslubiy asosini Сергей Благов, Azhar Serikqaliyeva, kabi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ishlari tashkil etadi. va boshqalar, shuningdek, Jahon banki xodimlarining erkin iqtisodiy zonalarni har tomonlama o‘rganishga bag’ishlangan nashrlari. ShHT bo‘yicha jahonning yetakchi iqtisodchi olimlaridan: A.Basile, D.Germidis, T.Simadzaki, S.Isixori, M.Rotbrand, Saydlovska – Martini E., T.Danko, Z.Okrut, L.Gitman, M.Djonk, Sh.Tasuno, S.Szoshe, R.I.Zimenkov, V.G.Ignatov, Yu.Komlev, A.Leusskiy, Yu.Kuznisov, G.Zhenga, E.Barbieribc va boshqalar o‘zlarining ilmiy asarlarda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va ularning integratsiyalashuvini o‘rganganlar. O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan: A.Vaxabov, Sh.Hojibakiyev, N.Mo’minov, J.Karimqulov, J.Umirzoqov, N.Kuziyeva, Sh.Mustafakulov, A.Akramov va boshqalar o‘zlarining ilmiy ishlarida mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etganlar.

TAHQIQOT METODIKASI (LITERATURE REVIEW)

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) bo‘yicha mavjud bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiya, ma’lumotlarni guruqlash, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalananilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Shanxay hamkorlik tashkiloti - tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, o‘zaro savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan davlatlararo xalqaro tashkilot. Bugungi kunda dunyodagi nufuzli xalqaro tuzilmaga aylangan Shanxay hamkorlik tashkiloti 2001 yil 15 iyunda Shanxay shahrida O‘zbekiston, Qozog‘iston, Xitoy, Qirg‘iziston, Rossiya va Tojikiston imzolagan deklaratsiya asosida tashkil etilgan. O‘zaro ishonch, do‘stlik va yaxshi qo‘schnichilikni mustahkamlash, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar, energetika, transport va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish, o‘zi qamragan mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash Tashkilotning asosiy maqsad va vazifalari hisoblanadi.



ShHT ochiqlik va bloklarga qo'shilmaslik tamoyillariga qat'iy sodiqligi tufayli ishtirokchi mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlab, xalqaro hamkorlikni muvaffaqiyatli tarzda chuqurlashtirmoqda. ShHT tarkibi kengayib, sheriklik munosabatlari rivojlanib bormoqda. Natijada bugungi kunda ShHTning umumiyligi maydoni 30 million km², ya'ni Yevroosiyoning 60% hududini o'z ichiga oladi. ShHT ulkan iqtisodiy, siyosiy va demografik salohiyatga ega. Xususan, dunyo yalpi ichki mahsulotining 30 foizi va dunyo aholisining 40 foizi ShHTga a'zo mamlakatlarga to'g'ri keladi. Geosiyosiy jihatdan esa "heartland" (dunyo yuragi) deb nomlangan hududning asosiy qismini tashkil qiladi. ShHTga to'qqizta davlat - Xitoy, Pokiston, Rossiya, Hindiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston va Eron (2022 yil Samarqand sammitida Eron Islom Respublikasining tashkilotga to'laqonli a'zo sifatidagi majburiyatlari to'g'risidagi memorandum imzolangan) a'zodir. ShHTda kuzatuvchi maqomdagagi davlatlar: Afg'oniston, Belarus (2022 yilda Belarus Respublikasiga ShHTning to'laqonli a'zosi maqomini berish bo'yicha jarayonlarni boshlash to'g'risida qaror qabul qilindi) va Mo'g'uliston. Muloqot bo'yicha sherik davlatlar: Armaniston, Ozarbayjon, Kambodja, Nepal, Shri Lanka, Turkiya, Misr, Qatar (2022 yil Samarqandda o'tkazilgan ShHTning 22 sammitida Bahrayn Podshohligi, Quvayt Davlati, Maldiv Respublikasi, Birlashgan Arab Amirliklari va Myanma Ittifoqi Respublikasiga – muloqot bo'yicha sheriklar maqomini berish to'g'risidagi memorandumlar imzolangan) va Saudiya Arabistoni. 2022 yil Samarqandda o'tkazilgan ShHTning 22 sammitida Bahrayn Podshohligi, Quvayt Davlati, Maldiv Respublikasi, Birlashgan Arab Amirliklari va Myanma Ittifoqi Respublikasiga – muloqot bo'yicha sheriklar maqomini berish bo'yicha protseduralarni boshlash to'g'risida qaror qabul qilingan. Xalqaro ekspertlarining fikricha, ShHTning geografik qamrovi kengayayotgani samaradorlik, o'zaro bir-birini tushunish va amaliy sa'yharakatlarni namoyish etayotganligi bilan faoliyatining dolzarbligini yana bir tasdiqlaydi. Tashkilotga a'zo bo'lish istagini bildirgan davlatlar sonining oshishi ShHT harbiy-siyosiy tashkilot bo'limgani, eng avvalo iqtisodiy birlashma ekanligini ko'rsatadi. Tashkilot formati, shuningdek, global va mintaqaviy masalalarini hal etish imkonini ham beradi. Davlat boshliqlari sammitlariga taklifnomalar olganlar: MDH, ASEAN, BMT, EurAzES, AQSh, Turkmaniston.

ShHTning eng muhim 3 ta vazifikasi 2001 yil 15 iyunda "Terrorizmga, separatizmga hamda ekstremizmga qarshi kurash haqidagi Shanxay konvensiyasi"da qabul qilinib, belgilab berildi:

- Terrorizmga qarshi birgalikda kurashish;
- Separatizm (ayirmachilik)ga qarshi kurash;
- Ekstremizmga qarshi kurash.





ShHT xaritasi

ShHTga a'zo davlatlar
ShHTda kuzatuvchi davlatlar
ShHTda muloqot bo'yicha sherik davlatlar:
ShHT sammitlariga taklif etilgan davlat va xalqaro tashkilotlar


Bu vazifalarni bajarish borasida davlatlar o'rtaida aloqalar yaxshi rivojlanib bormoqda. 2020 yilgacha bo'lgan davrda ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy va xavfsizlik yo'lida hamkorlik qilishni ko'zda tutuvchi dastur qabul qilindi. **ShHT tarkibida faoliyati yo'lga qo'yilgan tuzilmalar:**

- Terrorizmga qarshi birgalikda kurash markazi (2004 yil);
- ShHTning Ishbilarmonlar kengashi (2005 yil);
- ShHTning Banklararo assotsiatsiyasi (2006 yil);
- Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda bitim asosidagi hamkorlik.

Davlat rahbarlari sammiti

No	Sana	Shahar	Davlat
1.	2001-yil 14–15 iyun	Shanxay	
2.	2002-yil 7 iyun	Sankt-Peterburg	
3.	2003-yil 29 may	Moskva	



4.	2004-yil 17 iyun	Toshkent	
5.	2005-yil 5 iyul	Ostona	
6.	2006-yil 15 iyun	Shanxay	
7.	2007-yil 16 avgust	Bishkek	
8.	2008-yil 28 avgust	Dushanbe	
9.	2009-yil 15–16 iyun	Ekaterinburg	
10.	2010-yil 10–11 iyun	Toshkent	
11.	2011-yil 14–15 iyun	Ostona	
12.	<u>2012</u> -yil 6–7 iyun	Pekin	
13.	2013-yil 13 sentyabr	Bishkek	
14.	<u>2014</u> -yil 11–12 sentyabr	Dushanbe	
15.	2015-yil 9–10 iyul	Ufa	
16.	2016-yil 23–24 iyun	Toshkent	
17.	<u>2017</u> -yil 8–9 iyun	Ostona	
18.	<u>2018</u> -yil 9–10 iyun	Sindao	
19.	2019-yil 14–15 iyun	Bishkek	
20.	2020-yil 10 noyabr	Videokonferensiya	
21.	2021-yil 16–17 sentyabr	Dushanbe	
22.	<u>2022</u> -yil 15–16 sentyabr	Samarqand	
23.	2023-yil	Dehli	



2002-yil 7-iyulda Sankt-Peterburgda bo‘lib o‘tgan Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlarining ikkinchi uchrashuvida oltita davlat rahbarlari “Shanxay hamkorlik tashkiloti Xartiyasi”ni qabul qilib, unda ShHTning maqsadi, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, tamoyillari va tizimini aniq belgilab oldilar.

O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati nafaqat o‘z davlati tinchligi va xavfsizligini, balki butun mintaqaga va qolaversa butun dunyo miqyosidagi xavfsizlik muammolarini oldini olish borasida o‘zining amaliy tashabbuslari bilan chiqmoqda. Yurtboshimiz mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar minbarlaridan turib jahon hamjamiatini hozirgi davrda butun insoniyatga tahdid solayotgan yadro quroli, atrof-muhitning ifloslanishi, terrorizm, ekstremizm, separatizm va narkotik moddalarni ishlab chiqarish va tarqatish kabi xavflarga qarshi kurashishga chaqirib kelmoqda. Mamlakatimiz bu xavf-xatarlarga qarshi kurashishni o‘zining tinchliksevar tashqi siyosatining ustuvor vazifalari deb belgilagan. “Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minalash, bu mintaqani barqaror xavfsizlik hududiga aylantirishni tashqi siyosatimizning muhim ustuvor yo‘nalishi etib belgilab olganmiz” deb ta’kidlaydi Prezidentimiz o‘z asarida. 1996-yil 26dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risidagi qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda mintaqaviy va xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lib kirishi va ular bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi mumkin. Bu borada Ozbekiston mintaqasi davlatlari bilan birgalikda, mintaqaviy tashkilotlar doirasida ham faoliyat olib bormoqda. Buning yorqin misoli Shanxay hamkorlik tashkilotidir. O‘zbekistonning ushbu tashkilotga a’zo bo‘lishi davlatimiz manfaatlariga to‘liq javob beradi.

2022 yilning 15-16 sentyabr kunlari Samarqand shahri ShHTning 22-sammitiga mezbonlik qildi. Buyuk ipak yo‘lining qoq yuragida joylashgan bu muazzam shahar ming yillar davomida millatlararo muloqot, o‘zaro madaniy va ma’naviy hamkorlik, savdo va ilmiy almashinuvlar markazi sifatida xizmat qilib kelgan. Samarqandda o‘tgan ShHT sammitining ahamiyati shundaki, u pandemiya va dunyodagi murakkab vaziyatga qaramasdan, Pokiston, Eron, Hindiston, Rossiya, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Xitoy, Turkmaniston, Tojikiston, Belarus, Mo‘g‘uliston kabi Yevroosiyoning 14 ta mamlakati yetakchilarini birlashtirgani, xalqaro siyosat va iqtisodiyot markaziga aylangani o‘zbek diplomatiyasining katta yutuqlaridan biri sifatida qarash mumkin.

O‘zbekiston ShHTga raislik davrida Tashkilot doirasidagi amaliy hamkorlikni faollashtirish, uning salohiyati va xalqaro nufuzini oshirishga intildi. Xavfsizlik masalalari bilan bir qatorda savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni kengaytirishga ustuvor e’tibor qaratildi.

Tashkilot faoliyatining barcha sohalarida ko‘plab tashabbuslar amalga oshirildi. Pandemiya va global inqiroz oqibatlariga qaramasdan, 80 dan ortiq yirik tadbirlar o‘tkazildi. Shu davr mobaynida tashkilot tarixida eng ko‘p 40 dan ortiq hujjatlar imzolanganligi ham O‘zbekistonning faol harakati natijasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ShHTning Samarqand sammitidagi takliflari

Nº	Sohalar	Takliflar
1.	Transport	Termiz – Mozori-Sharif – Kobul – Peshovar temir yo‘li qurilishini qo‘llab-quvvatlash



		<p>Afg'onistonni gumanitar qo'llab-quvvatlash bo'yicha</p> <p>Termiz shahrida – u yerdagi mavjud transport-logistika xabining zamonaviy infratuzilmasidan foydalangan holda,</p> <p>birgalikda maxsus fondni ta'sis etish</p> <p>Toshkent shahrida Mintaqalararo o'zaro bog'liqlik markazini tashkil etish</p> <p>kelgusi yili O'zbekistonda ShHT birinchi transport forumi</p>
2.	Ekologiya	<p>siyosatchilar, jamoat arboblari, olimlar va ekspert-ekologlar, biznes vakillarini birlashtira oladigan ShHT Iqlim</p> <p>kengashini tuzish</p>
3.	Ta'lim	universitet rektorlari forumi
4.	Iqtisodiyot	<p>ShHTning yangi iqtisodiy muloqotini boshlash asosida sanoat va texnologik hamkorlikning umumiy makonini shakllantirish</p> <p>O'zbekistonda ShHT mintaqalarining biznes sherikligi haftaligini o'tkazish</p> <p>ShHT mamlakatlari maxsus iqtisodiy zonalari alyansini tuzish</p>
		<p>Samarqandda "O'zbekiston–ShHT" sanoat zonasasi bazasida maxsus zonalar administratsiyalari rahbarlarining birinchi uchrashuvini o'tkazish</p>
5.	Madaniyat, sport va turizm	<p>madaniyat va turizm kunlari, qo'shma sport tadbirlari va universiadalar singari qo'shimcha formatlarni ta'sis etish</p> <p>2023 yilni "ShHT makonida turizmni rivojlantirish yili" deb e'lon qilish</p>
6.	Qishloq xo'jaligi	<p>Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning umumiy tamoyillari va yondashuvlarini ishlab chiqish</p> <p>2023 yili Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkazish</p>
7.	Xavfsizlik	Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi kengashining yillik sayyor yig'ilishlari amaliyotini yo'lga qo'yish



XULOSA (CONCLUSION)

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, o'tgan davrda ShHT o'zini samarali mexanizm sifatida namoyon etib, siyosat va xavfsizlikdan iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikkacha bo'lgan keng qamrovli masalalarni o'z ichiga olgan mintaqaviy muammolarning butun bir majmuini hal etishga qodir xalqaro forum sifatida jahon siyosat sahnasidan mustahkam o'rinnegalladi. Dunyo bo'y lab keng tarqalgan pandemiya esa ShHTga bo'lgan obyektiv hayotiy zaruratni yanada oshirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алимов Р. ШОС: становление, развитие, перспективы. – Москва: Издательство «Весь мир», 2017.
2. Aris, S. 2009. The Shanghai Cooperation Organisation: Tackling the Three Evils. A Regional Response to Non-Traditional Security Challenges or an Anti-Western Bloc? *Europe-Asia Studies*, 61 (3).
3. Рахимов С. Торгово-экономическое сотрудничество Узбекистана в рамках СНГ // Демократизация и права человека. – 2018, №1 (77).
4. Rashid Alimov, "The Shanghai Cooperation Organization: Its role and place in the development of Eurasia", Journal of Eurasian Studies, Volume 9, Issue 2, 2018, 114-124, <https://doi.org/10.1016/j.euras.2018.08.00>
<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1879366518300216>
5. The SCO in the System of New Uzbekistan's Foreign Policy: An Interview with Vladimir Norov," *Special Eurasia*, June 16, 2022, <https://www.specialeurasia.com/2022/06/16/uzbekistan-sco-foreign-policy/>.
6. Chinese Deputy Foreign Minister Zhang Yesui explained the meaning of a 'Harmonious World.' <http://news.sohu.com/20060402/n242595778.shtml>
7. The 7th international student symposium: Celebrating research& creative endeavor. Tursunalieva Sabokhon Samarkand,2022.p.p111
8. Xing Guangcheng, Sun Zhuangshi, Shanghai Cooperation Organization Studies (Changchun Publishing house, 2020), pp. 92-93.
9. Ruslan Maksutov, 'The Shanghai Cooperation Organization: A Central Asian Perspective'. Sipri Project paper, August 2008.
10. Chorshanbiyevich, N. F. (2023). IMPACT OF COGNITIVE-PSYCHOLOGICAL BARRIERS ON THE IMPLEMENTATION OF PEDAGOGICAL INNOVATION. World Bulletin of Social Sciences, 26, 75-78.
11. Chorshanbiyevich, N. F. Pedagogical Profilactics of Cognitive-psychological Barriers That Arise in the Process of Innovative Activity. JournalNX, 47-49.
12. Kaldibekova, A. S., & Norboyev, F. C. (2015). INTERNET VOSITASIDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 51, pp. 16-18). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.



13. Норбоев, Ф. (2023). KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(8).
14. Yuldashev Sanjarbek Arslon o‘g‘li. (2023). The Solution of Economic Tasks with the Help of Probability Theory. Texas Journal of Engineering and Technology, 26, 26–29. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjet/article/view/4654>
15. УЗБЕКИСТАН, О. Р. республиканской научной конференции с участием зарубежных ученых Современные методы математической физики и их приложения 17-18 ноября 2020 г.
16. Zhu, Y. B., & Wei, Y. Y. (2017). Analysis of the Development Stages and Prospects of the Shanghai Cooperation Organization-Based on the Perspective of Organizational Life Cycle Theory. Contemporary Asia-Pacific, No. 3, 34-54, 158

